

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI TINCHLIKSEVARLIK RUHIDA TARBIYALASHNING PEDAGOGIK AHAMIYATI

D.Rasulova o'qituvchi.

Yu.Sindorova , 3-kurs talabasi.

Annotatsiya:Ushbu maqolada o'quvchilarni tinchliksevarlik ruhida tarbiyalash usullari haqida mulohazalar keltirilgan.

Kalit so'zlar:tinchliksevarlik,qadriyat, tinchlik madaniyati,farovonlik.

O'zbekistonda tinchlikparvarlik eng asosiy va muhim qadriyatlardan hisoblanadi. Olib borilayotgan barcha davlat islohatlari tinchlik uchun kurashishga da'vat etadi. Bu kurash ma'rifiy asosda bo'lishi bilan muhim asosga ega.

Pedagogik adabiyotlarda tinchlik muhim qadriyat ekanligi ta'kidlanib, u farovonlikning asosi sifatida ko'rsatiladi[2;3]. Bugungi kunda har bir shaxsda o'ziga xos tinchlik madaniyatini shakllantirish zaruriyati bor. Chunki, bu quyidagilar bilan belgilanadi: birinchidan, internet va mobil aloqa vositalari orqali jangarilik, zo'rovonlik kabi illatlar targ'ibot qilinmoqda; ikkinchidan, Osiyo qit'asida islom dinini niqob qilib olgan turli xil jangarilik harakatlari vakillari vahshiylik harakatlari olib borilmoqda[4]; uchinchidan, xalqlar o'rtasida ayirmachilikni targ'ibot qiluvchi guruhlarning mavjudligi sir emas va h.k. bularning barchasi xalq ongida o'ziga xos tinchlik madaniyatini shakllantirib borishni taqozo etadi. Shu ma'noda boshlang'ich sinf (7-11 yoshli) o'quvchilari ongida tinchlik madaniyatini shakllantirish ta'lim-tarbiya jarayonining eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Tinchlik madaniyati- bu insonni, tabiatni va jamiyatni asrashga yo'naltirilgan g'oyalar, qarashlar va munosabatlar majmuasidir. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ongi shakllanish jarayonida bo'lishi hisobga olinsa, ularda bu madaniyatni shakllantirish imkoniyati keng ekanligi ma'lum bo'ladi. Bizning fikrimizcha, bu borada quyidagilarga e'tibor berish maqsadga muvofiqdir:

1. O'quvchilarni g'oyaviy qurollantirish. Unga ko'ra, o'quvchilar ongiga tinchlik, totuvlik va ahillik kabi tushunchalarni talab darasida singdirish kerak. Bu borada milliy g'oyaga asoslanish maqsadga muvofiqdir[4]. Chunki milliy g'oyaning ilk tamoyili Yurt tinchligidir[1]. Yurt tinchligi g'oyasi insonni, tabiatni va jamiyatni muhofaza qilishni qamrab oladi. Buning natijasida tinchlik uchun kurashish qadriyati tarkib topadi. Shu ma'noda dars mashg'ulotlari va tarbiyaviy tadbirlar jarayonida mazkur masalalar o'quvchilar ongiga chuqur singdirilib borilishi maqsadga muvofiqdir.
2. O'quvchilarda sog'lom munosabatni shakllantirish. Unga ko'ra, o'quvchilarning inson, tabiat va jamiyatga nisbatan sog'lom munosabati shakllantirilishi kerak. Sog'lom munosabat o'quvchilarning o'zaro muomalasi, o'zgalarga munosabati va axloq-odobi majmuidan iborat.

O'quvchilar tarbiya darajasi turli xil bo'lgan oilalarning vakilidir, tabiiyki, bu hol ularning munosabat immunitetiga ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli boshlang'ich sinf o'quvchilarining sog'lom munosabat ko'nikmasini shakllantirish asosiy vazifalardan biridir. Ayniqsa, 2-sinfdan boshlab o'quvchilarning munosabat ko'nikmasida o'zgarishlar boshlanishini hisobga olish lozim. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining sog'lom munosabatini shakllantirishda ularni faollashtirishga e'tibor berish samarali hisoblanadi. O'quvchilar dars mashg'ulotlari va tarbiyaviy tadbirlarda faol bo'lishlari kerak, bunda o'qituvchi yoki murabbiy yo'naltiruvchi vazifasini bajaradi.

3. O'quvchilarni fikrlashga o'rgatish. Bugungi o'quvchi axborot oqimi jadallashgan davrda yashamoqda, afsuski, haqqoniy va soxta axborotlarni to'liq farqlab uzatishning imkoni yo'q. Shu sababli boshlang'ich sinf o'quvchilarida mustaqil fikrlash ko'nikmasini shakllantirishga alohida e'tibor berish lozim bo'ladi. Unga ko'ra, o'quvchi har bir axborotni to'g'ri qabul qilishi va uni tahlil qila olish ko'nikmasiga ega bo'lishi lozim. Bu bilan o'quvchi fikrlashga o'rganadi va to'g'ri va noto'g'ri axborotni farqlay boshlaydi.

Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, boshlang'ich sinf o'quvchilari to'liq darajada mobil aloqa vositasidan foydalanishadi. Mobil aloqa vositalarida esa jangarilik, zo'ravonlik kabi illatlarni targ'ibot qiluvchi o'yinlar, fil'mlar va ma'lumotlarning mavjudligi sir emas. Shu sababli boshlang'ich sinf o'quvchilarida fikrlash ko'nikmasini shakllantirish bilan haqqoniy voqelikni qabul qilishga o'rgatish mumkin.

Zero, 6-11 yoshli o'quvchilarning tinchlik madaniyati ko'nikmasida aynan ularni g'oyaviylik, sog'lom munosabat va mustaqil fikrlashga o'rgatish muhim ahamiyatga ega. Buning uchun eng maqbul va qulay vositalardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bunday vositalarning muhimlari quyidagilardir:

- 1) dars mashg'ulotlari;
- 2) maxsus tadbirlar;
- 3) to'garaklar;
- 4) klublar.

Dars mashg'ulotlari jarayonida tinchlik va uning ahamiyati hikoyalar so'zlab berish, maxsus darslar tashkil qilish va "Tinchlik- mening tasavvurimda" mavzusida insholar tanlovini o'tkazish kabilar samarali hisoblanadi. Bu bilan o'quvchilarda tinchlikni tasavvur qilish ko'lami kengayadi.

Maxsus tadbirlarning shakllari ko'p. Ulardan uchrashuvlar, kechalar va turli sahna ko'rinishlari tashkil qilish eng ommaviylaridandir. Buning uchun o'qituvchi, murabbiy va maktab psixologi birgalida harakat qilishlari lozim. Misol uchun, tinchlik to'g'risida fil'm namoyish qilib, uni muhokama qilish o'quvchilarni faollashtiradi va fikrlash ko'nikmasini o'stiradi.

"Tinchlik madaniyati" nomli to'garakni va uning a'zolarini rag'batlantirib borish ayniqsa samarali hisoblanadi. To'garak mashg'ulotlari o'quvchilarning faol ishtirokida qiziqarli tarzda tashkil qilinishi kerak.

"Tinchliksevarlar jamiyati" nomli klub tashkil qilish ham amaliy natija beradi. Klub tinchliksevarlik g'oyasini targ'ibot qilishi, axloqli va faol

o'quvchilarni aniqlab ma'naviy rag'batlantirilib borishi, sinflar o'rtasida tinchlik to'g'risida turli tanlovlar o'tkazib borish kabi vazifalarni bajarishi maqsadga muvofiqdir.

Bizning yondashuvimizga ko'ra, boshlang'ich sinf o'quvchilarining tinchlik madaniyati o'zgalarga bo'lgan munosabatidan boshlanadi. Shu ma'noda boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning bir-biriga oqilona munosabatda bo'lishiga erishish muhim ahamiyatga ega. Albatta, har bir o'quvchi va ota-ona 6-11 yoshli bolaning o'ziga xos munosabat egasi bo'lishini istaydi. Ammo, bunga erishish uchun birgalikda harakat qilishi va uzviy hamkorlik qilish kerak bo'ladi. O'qituvchi yoki maktab jamoasining hatti-harakati oila tomonidan qo'llab-quvvatlanishi lozim.

Jamiyatimizning hozirgi rivojlanish bosqichi boshlang'ich ta'limning samaradorligini yanada oshirib borishni taqozo etmoqda. O'quvchilarning tinchlik madaniyatini kutilgan darajada shakllantirishga erishish ana shu samaradorlikning muhim asoslaridan biridir. Chunki tinchlik madaniyati hodisasidan inson va jamiyat manfaatdor bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Karimov I.A. "Yuksak ma'naviyat- yengilmas kuch".- T.: "Ma'naviyat". 2008.
2. Hasanboyev J, To'raqulov X, Alqarov I, Usmanov N. "Pedagogika".-T.: "Noshir". 2011.
3. "Pedagogika fanidan izohli lug'at". J.Hasanboyev va boshqalar.-T.: "Fan va texnologiya".2009.
4. Usmanov N. "Bo'lajak boshlang'ich sinf o'quvchilarini milliy g'oya targ'ibotiga tayyorlashning pedagogik va texnologik asoslari.-T.: "Fan va texnologiya".2014.
5. Uktamovich, R. B. (2021, January). O? QUVCHILARNI SOG? LOM TURMUSH TARZI ASOSIDA TARBIYALASHNING AHAMIYATI. In Euro-Asia Conferences (Vol. 1, No. 1, pp. 498-500).
6. Rasulova, D., & Rasulov, B. (2019). Features of studying the level of psychological readiness of a seven-year-old child's adaptation to school. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences, 7(12).
7. Rasulova, D. (2020). QIZLARNI SOG'LOM TURMUSH TARZI ASOSIDA TARBIYALASHNING AHAMIYATI. Архив Научных Публикаций JSPI.
8. Uktamovich, R. B., & Rakhmatullaevna, R. D. (2019). FEATURES OF STUDYING THE LEVEL OF PSYCHOLOGICAL READINESS OF A SEVEN-YEAR-OLD CHILD'S ADAPTATION TO SCHOOL. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol, 7(12).
9. Davurova, G. (2020). Yosh ota-onalarining pedagogik-psixologik bilimlarini oshirishning ahamiyati. Архив Научных Публикаций JSPI.
10. Расулова, Д. (2020). Психологическая диагностика личностных и эмоциональных аспектов суицидального поведения подростка. Архив Научных Публикаций JSPI.

11. Каршибаева, Г. А., Расулов, Б. У., Расулова, Д. Р., & Эшмуратов, О. Э. (2018). Психологическая диагностика личностных и эмоциональных аспектов суицидального поведения подростка. *Образование и воспитание*, (2), 72-73.
12. Rasulova, D. (2020). САМАРАЛИ ТАЪЛИМ-ИЖОДИЙ ЁНДАШУВ МАҲСУЛИ. Архив Научных Публикаций JSPI.
13. Davurova, G. (2020). СЕМЕЙНЫЕ ПРОБЛЕМЫ И ИХ РЕШЕНИЕ. Архив Научных Публикаций JSPI.
14. Davurova, G. (2020). Yosh ota-onalarining pedagogik-psixologik bilimlarini oshirishning ahamiyati. Архив Научных Публикаций JSPI.
15. Davurova, G. (2020). Pedagogika oliy o'quv yurti talabalarining ijodiy faoliyatini shakllantirishda psixologik xizmatni tashkil etish. Архив Научных Публикаций JSPI.
16. Rasulova, D., & Rasulov, B. (2019). Features of studying the level of psychological readiness of a seven-year-old child's adaptation to school. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences*, 7(12).
17. Rasulova, D. (2021). Ta'lim muassasalarida tabaqalashtirilgan ta'limni tashkil qilishning amaliy ahamiyati. *Джизакское инновационное образование*, 1(1).
18. Maxamatova, F. (2020). Оилада фарзанд маънавий тарбиясига руъий таъсирлар. Архив Научных Публикаций JSPI.
19. Maxamatova, F. (2020). Sog'lom oilaviy muhitni himoya qilishning qonuniy asoslari. Архив Научных Публикаций JSPI.
20. Uktamovich, R. B. (2021, January). O' QUVCHILARNI SOG' LOM TURMUSH TARZI ASOSIDA TARBIYALASHNING AHAMIYATI. In *Euro-Asia Conferences* (Vol. 1, No. 1, pp. 498-500).
21. Rasulova, D., & Rasulov, B. (2019). Features of studying the level of psychological readiness of a seven-year-old child's adaptation to school. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences*, 7(12).
22. Uktamova, U., & Berdiyorova, S. (2020). THE ROLE OF COMMUNICATION IN PEOPLE'S RELATIONSHIPS AND WAYS OF LEARNING TO COMMUNICATE. Архив Научных Публикаций JSPI.
23. Uktamova, U. (2020). Талаба ?изларни оила муста?камлигига эришишга тайёрлаш. Архив Научных Публикаций JSPI.
24. Uktamova, U. (2020). КИЧИК МАКТАВ YOSHIDA QOBILIYATNING PSIXOLOGIK TAVSIFI. Архив Научных Публикаций JSPI.
25. Berdiyorova, S., & Uktamova, U. (2020). РОЛЬ ОБЩЕНИЯ ВО ВЗАИМООТНОШЕНИЯХ ЛЮДЕЙ И СПОСОБЫ ОБУЧЕНИЯ К ОБЩЕНИЮ. Архив Научных Публикаций JSPI.
26. Uktamova, U. (2020). Ў?увчиларга маънавий-ахло?ий тарбия бериш ор?али экологик маданиятини шакллантириш. Архив Научных Публикаций JSPI.
27. Davurova, G. (2020). Pedagogika oliy o'quv yurti talabalarining ijodiy faoliyatini shakllantirishda psixologik xizmatni tashkil etish. Архив Научных Публикаций JSPI.
28. Davurova, G. (2020). СЕМЕЙНЫЕ ПРОБЛЕМЫ И ИХ РЕШЕНИЕ. Архив Научных Публикаций JSPI.

29. Davurova, G. (2020). Komil inson masalasining psixologiyada tadqiq etilishi. Arxiv Nauchnykh Publikatsiy JSPI.
30. Rasulova, D. (2020). YOSH OTA-ONALARNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK BILIMLARINI OSHIRISHNING AHAMIYATI. Arxiv Nauchnykh Publikatsiy JSPI.
31. Davurova, G. (2020). O'ZLASHTIRISHI QIYIN BO'LGAN KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI BOLALAR PSIXOLOGIYASIDAGI MUAMMOLAR VA ULARNING YECHIMLARI. Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, (1).
32. Hamrayeva, N. (2020). СЕМЕЙНЫЕ ПРОБЛЕМЫ И ИХ РЕШЕНИЯ. Arxiv Nauchnykh Publikatsiy JSPI.
33. Davurova, G. (2020). O'ZLASHTIRISHI QIYIN BO'LGAN KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI BOLALAR PSIXOLOGIYASIDAGI MUAMMOLAR VA ULARNING YECHIMLARI. Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, (1).
34. Qayumov, A. (2020). SYSTEM-TECHNOLOGICAL APPROACH TO SPIRITUAL AND AESTHETIC EDUCATION IN THE STUDY OF PEDAGOGICAL DISCIPLINES. Arxiv Nauchnykh Publikatsiy JSPI.
35. Qayumov, A. (2020). ДУХОВНО-ЭСТЕТИЧЕСКОЕ ВОСПИТАНИЕ БУДУЩЕГО УЧИТЕЛЯ. Arxiv Nauchnykh Publikatsiy JSPI.
36. Toshnazarova, U. (2021). Мулоқот маданиятининг ривожланиши психологик омиллари. Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, (2).
37. Toshnazarova, U. (2020). Communicative culture of socio-psychological support of professional development of higher education students. Arxiv Nauchnykh Publikatsiy JSPI.
38. Toshnazarova, U. (2020). Социально-психологические аспекты общения и коммуникативной культуры. Arxiv Nauchnykh Publikatsiy JSPI.
39. Davurova, G. (2021). OILAVIY MUAMMOLAR VA ULARNING YECHIMI. Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, (2).
40. Davurova, G. (2021). TALABA-QIZLARDA TAZYIQ VA TAJOVUZGA QARSHI DUNYOQARASHNI SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOIIY ASOSLARI. Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, (2).